

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 77 (1138), 2024-yil 23-aprel, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz



## PREZIDENT QARORLARI — HAYOTDA VA NAZORATDA

# SAMARALI IJRO TIZIMI HAYOTBAXSH QONUN HUJJATLARINING XALQCHIL KUCHINI OSHIRMOQDA



Ijro tizimidagi ko‘p yillik tajribamdan bilamanki, qonun hujjatlari ijrosi jarayonida salgina sustkashlik, kechikish bo‘lsa, bu holat hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida, albatta, iz qoldiradi. Bunda ijro jarayonidagi izchillikka putur yetibgina qolmay, aholida haqli ravishda norozilik kayfiyati ham tug‘iladi.

### Rahbarlarning ish uslubi va kun tartibi o‘zgardi

Prezidentimizning 2021-yil 10-fevraldagi “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bilan mamlakatimizda ijro jarayoni sifat va mazmun jihatidan tubdan o‘zgardi, desak ayni haqiqat bo‘ladi.

Mazkur hujjatlar natijasida ijro tizimi takomillashib, barcha rahbarlarning ish uslubi, kun tartibi ham o‘zgardi. Quyi tizim rahbarlari xonasida xat-hujjatga ko‘milib o‘tiravermay, o‘z ish faoliyati bilan shug‘ullanishi uchun ko‘proq vaqt va imkoniyatga ega bo‘ldi.

Davomi 3-betda

## ITTIFOQCHILIK MUNOSABATLARI

Prezidentimizning Tojikistonga davlat tashrifi do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik, strategik hamkorlik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirishda avvalgi muloqotlarning mantiqiy davomi bo‘ldi. Fan, ta‘lim sohasidagi integratsiyalashuv, mintaqaviy, xalqaro munosabatlardagi o‘zaro iqtisodiy sheriklik masalalari yangi bosqichga ko‘tarildi.

## INSTITUTSIONAL RIVOJLANISH SARI YANGI ODIMLAR

O‘zbekiston uchun Tojikiston geografik jihatdan yaqin qo‘shni, sinovlardan o‘tgan strategik hamkor mamlakat. Ikki xalqni asrlar davomida chuqur ildiz otgan savdo-sotiq, bordi-keldi, fan, ta‘lim sohasidagi aloqalar, qolaversa, qarindoshlik, quda-andachilik qadriyatlarini bog‘lab keladi. Shu bilan birga, o‘zbek va tojik xalqlari azaldan bir daryodan suv ichib, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi shoirlarining nodir asarlarini o‘zaro mushtaraklik bilan o‘qib, ulkan so‘z merosini asrab-avaylab, avlodlar avlodga yetkazib keladi. Ana shu ezgu g‘oyalardan ruhlanib, bir-birini qo‘llab-quvvatlab yashaydi.

Davlatimiz rahbarining ochiq, pragmatik, konstruktiv ruhdagi keng ko‘lamli ichki va tashqi siyosati dastlab chegara muammolarini ijobiy hal qilish, qo‘shni mamlakatlar o‘rtasidagi xavfsiz savdo-sotiq, bordi-keldi masalalarini diplomatik yechishda samarali rol o‘ynadi. Xususan, 2018-yildan ikki xalq hayotida yangi kunlar boshlandi. O‘zbekiston

va Tojikiston yetakchilari erishgan kelishuvlar natijasida ikki davlat chegarasida 9 ta o‘tish punkti rasman ochildi. Natijada kunlik qatnov 10 barobar ko‘paydi.

Ikki davlat o‘rtasida temir yo‘l qatnovi tiklandi. Bu ham ikki tomondagi fuqarolarni bir-biriga jipslashtirdi, o‘zaro mehr-oqibat rishtalarini mustahkamladi. Natijada fuqarolarning tadbirkorligi quloq chiqardi, chegaradosh hududlarda oilaviy biznes ancha jonlandi, oliy ta‘lim muassasalariga kirib o‘qish osonlashdi.

Tashrif doirasida tovar ayirboshlashni 2 milliard dollarga yetkazish, shuningdek, o‘zaro mahsulot yetkazib berish nomenklaturasini kengaytirish, chegaraoldi savdo zonalarini tezkor ishga tushirish masalalari ham ko‘rib chiqildi. Sanoat kooperatsiyasini rag‘batlantirish uchun energetika, elektrotexnika, metallurgiya, qazib chiqarish, to‘qimachilik, farmatsevtika, agrosanoat va boshqa tarmoqlarda muhim loyihalarni birgalikda amalga oshirishga kelishib olindi.

Davomi 2-betda

## Tahlil va taqqos



## NEGA ASFALT EMAS, SEMENT-BETON YO‘LLAR QURILADI?

Mamlakatimizdagi jami avtomobil yo‘llari tarmog‘i qariyb 210 ming kilometrni tashkil etadi. Uning 42,9 ming kilometri umumfoydalanuvdagi, 142 ming kilometrda ziyodi ichki, xo‘jaliklararo, qishloq, shahar va ovullar avtomobil yo‘llaridir. 24,7 ming kilometri esa idoraviy inspektorlik yo‘llari tarmog‘ini o‘z ichiga oladi.

Ushbu raqamlarning o‘zi ham yo‘l tizimi bilan bog‘liq yumushlar miqyosi nechog‘liq kengligini ko‘rsatib turibdi. Amalga oshirilayotgan ishlar ko‘lami ham kam emas. Keyingi 7 yilda yurtimizda yo‘l qurish va ta‘mirlashga ajratilayotgan mablag‘ 3 karradan ortiqqa oshgan. Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi tarkibidagi korxonalar 2 mingdan ziyod maxsus texnika xarid qilgan. 70 ming kilometrqa yaqin yo‘l qurilgan va ta‘mirlangan. Umuman, keyingi paytda 3 mingdan ziyod mahalla yo‘llariga ilk bor

asfalt yotqizildi, yana 2 mingtasidagi tuproq yo‘llar shag‘al qoplamaga o‘tkazildi.

Shunga qaramay, o‘n yillar davomida yig‘ilib kelgan muammolarni qisqa vaqtda hal etish oson emas. Ayniqsa, ichki yo‘llar borasida. Bu “Ochiq budjet” portali orqali jamoatchilik ishtirokida “Tashabbusli budjet” va “Mening yo‘lim” loyihalarini o‘tkazish jarayonida yanada yaqqolroq ko‘zga tashlandi.

Davomi 4-betda

## Mahallada duv-duv gap

# JAMIYATGA “BRILLIANT” QIZLAR KERAK

## YOXUD MAKTAB O‘QUV POLIGONIDA BIR KUN

Tunov kuni maktabga ota-onalar majlisiga chaqirishdi. Har ishda bir hikmat bor deganlaridek, o‘sha kuni biz, ota-onalar majlis bahona o‘zimiz uchun bir qahramonni kashf qildik. Odatdagidek hamma ham aytilgan vaqtga kelavermadi. Yig‘ilganlar esa g‘ala-g‘ovurni boshlab yuborgan. Hamma direktorning kelishi-yu aytadiganini tezroq aytishini kutadi. Ammo bu gal maktab direktori emas, bahoriy tarona ostida ikki o‘quvchi so‘z boshladi. Ular ota-onalar uchun farzandlari tomonidan alohida bayram dasturi tayyorlanganini e‘lon qilgach, bir-biridan go‘zal chiqishlar boshlandi.

Doira, dutor chertgan o‘quvchilar mudroq qalblar torini ham chertib yubordi. Raqs sirlarini ancha tushunib qolgan qizlar dilbar raqslardagi nafis harakatlari bilan ko‘zlarimizni quvvatdi. Kayfiyat ko‘tarinki. “Bo‘lar ekan-ku, ota-onalar majlisini shunday tashkil qilsa”, deb yubordim beixtiyor. “Bayram bo‘lgani uchungina emas, aslida, hamisha shu yo‘lni tutish kerak”, deydi yonimdagi ayol meni qo‘llab. “Barcha o‘quvchilar ishtirok etishiga erishilsa, zo‘r bo‘lardi. Chunki bolasi sahnada bir og‘iz so‘z aytasa ham ota-ona to‘lqinlanib, xursand bo‘lib ketadi-da”, deydi boshqasi.

Davomi 5-betda



## SAKSON OILAGA BARAKA KIRDI

4

## XALQ ICHIDA

# KO‘P QAVATLI UYLAR DEVORIDAGI RASMLAR

## ULARNI QANDAY VA KIMGA CHIZDIRISH MUMKIN?

6









